

SHUKUR XOLMIRZAYEV IJODIDA ESTETIK IDELNING O‘ZIGA XOSLIGI (“YOVVOYI GUL” HIKOYASI MISOLIDA)

Umarova Zebiniso Olimjonovna

TerDU O‘zbek filologiyasi

fakulteti 4-bosqich talabasi

umarovazebiniso41@gmail.com

+998(97) 535 77 72

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XX asr o‘zbek hikoyachiligining yetuk vakili Shukur Xolmirzayev hikoyalarida estetik ideal kategoriyasining namoyon bo‘lish xususiyatlari tadqiq etilgan. Maqolada adib badiiy uslubining o‘ziga xos jihatlari va hikoyalarida estetik idealning ifodalanish tamoyillari tahlil qilingan. Xususan, “Yovvoyi gul” hikoyasi misolida yozuvchining inson va tabiat munosabatlarini badiiy tadqiq etish mahorati, metaforik tasvirning estetik ideal bilan bog‘liqligi ochib berilgan. Shukur Xolmirzayev estetik idealni oddiy qishloq hayoti, tabiat va inson ruhiyatining uyg‘unligi orqali tasvirlaydi hamda ideallarni real voqelikdan izlash tamoyiliga asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *estetik ideal, pafos, hikoya, badiiy tasvir, inson va tabiat, metafora, milliy adabiyot, realizm.*

Abstract: *This article examines the features of the manifestation of the category of aesthetic ideal in the short stories of Shukur Xolmirzayev, a prominent representative of 20th-century Uzbek storytelling. The study analyzes the stages of the writers creative development, the specific characteristics of his artistic style, and the principles of expressing the aesthetic ideal in his stories. In particular, using the story “Yovvoyi gul” as an example, the article reveals the authors artistic mastery in exploring the relationship between human beings and nature, as well as the connection between metaphorical imagery and the aesthetic ideal. Shukur Xolmirzayev portrays the aesthetic ideal through the harmony of rural life, nature, and human psychology, and bases it on the principle of seeking ideals within real reality.*

Keywords: *aesthetic ideal, pathos, short story, artistic imagery, human and nature, metaphor, national literature, realism.*

XX asr hikoyachiligining zabardast vakili, o‘z ijodi bilan so‘z san‘atimiz — adabiyotni yangi saviyaga olib chiqishga salmoqli hissa qo‘shgan adiblarimizdan biri Shukur Xolmirzayevdir. Uning asarlari o‘zbek xalqi ma‘naviyatining yuksalishida o‘ziga xos ahamiyatga ega. Adib ijodi serqirraligi bois olimlar va tadqiqotchilar tomonidan hanuzgacha o‘rganib kelinmoqda. Adibning hikoyalari haqida taniqli o‘zbek adabiyoti olimlaridan U.Normatov, S.Mamajonov, Q.Yo‘ldoshev, H.Boltaboyev, O.Otaxonov, R.Qo‘chqorovlarning maqolalari e‘lon qilingan. Shuningdek,

H.Karimovning “Shukur Xolmirzayev ijodiy portreti” risolasi, akademik B.Nazarovning “Shukur Xolmirzayev” nomli ijodiy portreti ham shular jumlasidandir (Tavaldiyeva, 2020, 3-bet).

Yozuvchi Shukur Xolmirzayev hikoyanavis o‘laroq qaysi mavzuni qalamga olmasin, qandaydir muhim, salmoqdor ijtimoiy fikrni, muammoni ifodalashga intildi. Uning bu xususiyatlari, ayniqsa, “Shudring tushgan bedazor”, “Cho‘loq turna”, “Podachi”, “Ko‘k dengiz”, “Xorun ar-Rashid”, “Qadimda bo‘lgan ekan”, “Tabassum”, “Ustoz”, “Farzand” kabi bir qator hikoyalarda yorqin namoyon bo‘ladi (Sodiqov, 2019, 651-bet).

Adibning “Hayot abadiy”, “Bodom qishda gulladi” to‘plamlari o‘zbek adabiyotida hikoyachilikning yangi bosqichga ko‘tarilganligidan dalolat berib turardi. Ijodkor o‘z hikoyalarda yaxshi va yomon obrazlar, xarakterlar, umuman olganda, yaxshi va yomon tendensiyasidan vos kechib o‘z so‘zini ayta oladigan, vaziyatga, tuzumga nisbatan tandiqiy fikrlarini bildira oladigan, mushohadali, kezi kelganda o‘z ovozi ko‘tara oladigan obrazlarni qahramon sifatida yaratdi (Karimov, 1999, 497-bet).

Yozuvchi asarlarida hayotiy voqelikni chuqur badiiy tahlil qilish, inson ruhiyatini nozik tasvirlash va estetik idealni o‘ziga xos tarzda ifodalash katta ahamiyat kasb etadi. Shukur Xolmirzayev estetik idealni yolg‘iz go‘zallik mezoni o‘laroq emas, balki uni axloqiy poklik, insoniylik va ichki halollik bilan bog‘liq holda tasvirlaydi. Uning hikoyalarda estetik ideal “bezaklardan” holi, sodda va tabiiy tarzda tasvirlanadi. U voqelikni qanday bo‘lsa shundayligicha, tabiiy tasvirlaydi va bu orqali o‘quvchini haqiqat bilan yuzlashtirmoqchidek bo‘ladi. Adibning qahramonlari ko‘pincha oddiy qishloq odamlari hisoblanib, ularning ichki dunyosi, o‘y-xayollari, kechinmalari, muammolari orqali o‘qirman nigohida ideal gavdalanadi. Bu esa ijodkorning realizmni afzal ko‘rishini, real hayotni boricha tasvirlashni, ideallarni real hayotdan izlashni ma‘qul ko‘rishini ko‘rsatadi. Uning ijodi orqali oddiy qishloq hayotiga, qishloq odamlariga va qishloq tabiatiga qanchalik sodiq ekanini ko‘rishimiz mumkin.

Shukur Xolmirzayev ijodining ma‘lum bir qismini tabiat va inson munosabatlarini badiiy tadqiq etishga bag‘ishladi. U inson hayotini, yashash tarzini, abadiy tiriklik manbayini tabiat bilan uyg‘unlikda, bog‘liqlikda, birlikda deb bildi. Ayni mana shu jihat adibning tabiat mavzusiga bag‘ishlangan bir nechta hikoyalari orqali o‘z isbotini topadi. Masalan, “Yovvoyi gul”, “Jarga uchgan odam” hikoyalarda inson va tabiat munosabatini, qishloq hayotining va odamlarining tabiat bilan qanchalik bog‘liq ekanini ko‘rishimiz mumkin. “Yovvoyi gul” hikoyasiga nazar tashlasak, hikoya inson tabiatini, uning ildizlari va yashash muhiti bilan uzviy bog‘liqligini ochib beradi. Asar qahramoni Vositjon yalqov va xayolparast bola sifatida tasvirlanadi. Bilamizki, bunday xayolparast bolalarning o‘ziga xosligi atrofidagi uni do‘stlaridan ajratib turuvchi orzusidir. Uning ham bir orzusi bor edi: adirlarda sang‘ib yurganida, oshnalari chiqib qolsa, kunbotarni ko‘rsatib, o‘sha yoqda shahar borligi, uning juda antiqaligini aytar va kelgusida o‘zining shaharda yashash orzusini hikoya qilardi. U shahardagi Ma‘daniy-

oqartuv bilim yurtini tamomlagach, bolalikedagi orzusiga yetishadi. “Shahar haqiqati” gazetasiga korrektor bo‘lib ishga kiradi va shaharda yashashni boshlaydi. Ammo u olti oy o‘tmay kvartirasini almashtirar, bunga goh o‘zi sababchi bo‘lsa, goh uy egasi sababchi bo‘lar bu lallaygan bolani yoqtirmay qolar edi. Shu tariqa u eng oxirgi kvartira katta park orqasidagi shofyor o‘g‘li bilan yashaydigan Navoxon ayaning uyida yettinchi oy ham yashab qoladi. Hikoya davomida o‘quvchi Vositning naqadar xayolparast, hayotdagi jiddiy muammolardan yiroq ekani, o‘zini bunday tashvishlardan chetda tutishi, umuman olganda, butun umri davomida hayotdan mo‘jiza kutib yashashiga guvoh bo‘ladi. Ammo uning o‘zi ham bu mo‘jiza, bu baxt qanday ekanini va qayerdan kelishini aniq bilmas, bu haqida o‘ylamas edi, balki o‘ylashni istamagan hamdir.

Vosit har doim bir xonadonga ko‘chib o‘tganda, eng ko‘p o‘sha xonadonlardagi gulzorlarni, gullarni yoqtirar edi. Ammo Navoxon ayaning uyi u yashagan xonadonlar ichida eng yoqtirgani bo‘ldi: chunki bu yerdagi gulzorda o‘zining qishlog‘ida o‘sadigan kosagul, chinnigul va xinalar barq urib o‘sib yotardi. Shu sababdan gulzordagi gullarni parvarish qilishni o‘z bo‘yniga olgandi. Mana shu yerda ham Vosit gullarning kelgusidagi taqdirida qandaydir qiziq o‘zgarishlar bo‘lishini xayol qilardi. Ammo bu o‘zgarish qanday ekanini o‘ylab ko‘rmas edi. Qahramon hech narsani o‘ylamaydigan, bordi-yu o‘ylashga tirishib qolsa ham bundan tez zerikadigan kishi sifatida tasvirlanadi. O‘qirman ko‘z o‘ngida Vositjon go‘yo o‘ylashdan qochadigandek gavdalanadi. Aslida ham shunday. U o‘ylashni emas, kutishni tanlaydi. Hammasini vaqt hukmiga tashlab qo‘yadi. Ammo hayot shunday qudratga egaki, u insonga xato qilayotganini, fikrini o‘zgartirishi kerakligini qanday bo‘lmasin uqtiradi. Ba‘zan esa buning uchun albatta, insonning boshi devorga urilishi kerak.

O‘z orzusida yashayotgan Vositga bu muhit aks ta‘sir qila boshlaydi. Yozuvchi buni shunday tavsirlaydi: O‘zi nimjon bo‘lgan bu yigitga shahar havosi yomon ta‘sir qila boshladi. Yuragi siqilib, nafasi yetmaganday bo‘lar, gullar qovjiragan mahallarda parkka chiqib, jimjit daraxtlar ostida, oyog‘i tagida g‘ijirlagan barglarning ovozigga quloq solib yurar edi. Tabiat bilan uyg‘un o‘sgan Vosit bora-bora bu muhitdan siqilishni, bezovtalanishni boshlaydi. U o‘zini yengillashtirish uchun mana shunday sokin o‘rtamga ega joylarda vaqt o‘tkazadi. Ammo nega shahar muhiti unga yomon ta‘sir qilayotgani haqida o‘ylab ko‘rmaydi.

Qish kunlarining birida shofyor yigit bolali xotinni olib keladi va haligi uy torlik qilib Vosit buklama karavotini olib oshxonada uxlaydigan bo‘ladi va bir kuni o‘ng biqini qattiq og‘rib uyg‘onadi. Doktor uning talog‘i shamollaganini, yotib davolanishi kerakligini ma‘lum qiladi. Vosit shifoxonada 4 oy yotib qoladi. Shu kasal bilan og‘rigan boshqa bemorlar ikki-uch oyda tuzalib chiqishadi. Ammo kimsasizlik, yolg‘izlik, tuzalishi uchun zarur bo‘lgan narsalarga qurbsiz ekani sabab uning tuzalishi biroz muddat oladi. Avvalgidek kasalxonada ham xayol surar, bu yerdan chiqqanidan so‘ng hayotida katta o‘zgarishlar bo‘lishiga ishonardi. Bu orada redaksiyadagi hamkasblari

ikki marotaba kelib uni ko‘rib ketishadi. Onasi bitta ukasi bilan keladi, tuzalgach qishloqqa qaytishini yolvorib so‘raydi, ammo Vosit tuzalib chiqqach, ko‘ramiz,- deb e‘tiborga olmaydi. Shahar orzusi, shaharda qolish istagi kasalligi, bu hoida kimsasiz qolib ketishi, tuzalishi qiyin bo‘lishi mumkinligi haqida o‘ylashiga to‘sqinlik qilardi.

Hikoyaning nomi nega “Yovvoyi gul” deb atalganiga to‘xtalamiz. Vosit kasalxonadan chiqqanidan so‘ng redaktor tashabbusi bilan Oyna toqqa lola sayriga chiqishadi. Vosit shaharga xirs qo‘yganidan tog‘ni, qishloq tabiatini unutgan edi. Kasal bo‘lishiga qaramasdan tog‘ga chiqib gullarni tomosha qiladi. Qaytish chog‘ida yovvoyi gul – kiyiko‘tdan bir tutam yulib, shaharga olib kelib ekadi. Ammo u gul qishloq havosiga o‘rgangani, u yerga oid bo‘lgani sabab qurib nobud bo‘ladi. Xuddi Vositni shahar muhiti nobud qilayotganidek...

O‘zi oid bo‘lgan yerlarga qadam qo‘ygan, ko‘ksiga qishloq nafasi urilgan shu paytga qadar hayoti haqida jiddiy mulohaza yuritmagan, o‘ylab ko‘rmagan Vosit “yovvoyi gul” o‘z “yovvoyiligida” unishini tushunib yetadi. O‘quvchi hikoya sarlavhasini o‘qiganda gap yovvoyi gul - kiyiko‘t haqida ekanini taxmin qiladi, ammo Shukur Xolmirzayev kuchli metafora bilan bir detal misolida qahramon taqdirini, o‘zi qasd qilgan badiiy niyatni va estetik idealni ochib beradi.

Ko‘rishimiz mumkinki, yozuvchining bu hikoyada ko‘zlagan estetik ideali inson o‘ziga oid bo‘lgan yerlardagina gullaydi, yashab keta oladi, u o‘z tabiiy muhitidan ayrilsa, ma‘naviy jihatini ham qo‘ldan boy beradi degan g‘oyadir. Yozuvchi buni bizga ushbu qisqa hikoya orqali, undagi “yovvoyi gul” (Vositjon, kiyiko‘t) misolida tushuntirmoqchi bo‘ladi. Bejiz “O‘zga yurtning gulidan, o‘z yurtningning cho‘li yaxshi” deyishmaydi. Bu hikoya hayotimiz haqida mulohaza qilishdan qochmaslikni, inson o‘zi uchun to‘g‘ri deb bilgan qarorlar aks ta‘sirga ega bo‘lishi mumkinligini va ba‘zan hayot insonga yo‘qotishlar orqali “dars berishi”ni o‘rgatadi. Hikoya so‘ngida Vosit obrazi o‘quvchi tasavvurida asta-sekin o‘z holatini anglashga intiluvchi, xatosini anglab, xulosa qiladigan shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

Shukur Xolmirzayev ijodida estetik idealning o‘ziga xosligi shundaki, u o‘z idealini oddiy odamlar orasidan tanlaydi. Uning qahramonlari oddiy qishloq odamlari bo‘lib, ularning ichki kechinmalari, ichki dunyosi orqali idealni gavdalantiriladi. Shu jihat bilan adibning hikoyalari o‘zbek nasrida yuksak estetik tafakkur namunasi hisoblanadi. Umuman olganda, Shukur Xolmirzayev asarlari bugungi kun kitobxonni uchun ma‘naviy-axloqiy kompas vazifasini o‘taydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Quronov D. (2018). Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: Akademnashr.
2. Sanjar Sodiq. (2019). Yangi o‘zbek adabiyoti tarixi. “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

3. Д.Қуронов, З.Мамажонов, М.Шералиева. (2013). Адабиётшунослик луғати. Тошкент: Akademnashr
4. Каримов Н. (2008). XX аср адабиёти манзаралари. Тошкент: “O‘zbekiston”.
5. Туропова П. (2020). Адабий эстетик идеал категориясининг трансформацияланиш жараёни. Тошкент: - MUMTOZ SO‘Z.
6. Холмирзаев Ш. (2003). Танланган асарлар. Тошкент: Шарқ.